

TAFSIR ILMINING PAYDO BO'LISHI TARIXI

Sadriddinov Nurul-Imon Zayniddin o'g'li

“Ko'kaldosh” o'rta maxsus islom bilim yurti,

“Kadrlar” bo'limi boshlig'i

Tashkent, Uzbekistan.

E-mail: nurimon7737@gmail.com

Abstract. *This article is devoted to highlighting the direction of the science of interpretation based on narrations. In particular, information is provided about the heritage of scholars working in Termez. Their scientific travels and works are described. The information is periodically separated. This information is taken from reliable sources.*

Keywords: *Tafsir, Rivoyat, Tafsir al-Ma'sur, science, enlightenment, religion, heritage, works, lesson, hadith, interpretation, scholar, hadith specialist, jurist, commentator, pious, righteous, ascetic, sheikh, mashaykh, hafiz, tradition.*

Ma'lumki, Qur'on oyatlari Rasululloh sallallohu alayhi vasallamga 23 yil mobaynida bo'lak-bo'lak holda nozil qilingan. Bu oyatlarning o'qilishini va ma'nolarini Rasululloh sallallohu alayhi vasallam sahobalarga tushuntirib berar edilar, shuning bilan birga ular bu oyatlarni o'z hayotlariga tadbiq qilar edilar. Darhaqiqat, musulmonlar bu ulug' kalomni chuqur o'rganishlari bilan unga tavajjuh qilishdan o'zga ulug'lik va undagi yaxshiliklardan o'zga insonga foydali bo'lgan xayriyat yo'qligini tushunib yetgan edilar. Qur'on xolis arab tilida nozil bo'lganligi uchun uning oyatlarining ma'nolarini tushunar edilar. Shuning bilan bir qatorda asl maqsadi nozik bo'lgan Qur'on oyatlari bor ediki, ularni tushunishda sahobalar ham to'siqlarga duch kelar edilar. Ammo bu uzoqqa cho'zilmas edi. Ular bunday hollarda Rasululloh sallallohu alayhi vasallamga murojaat qilar edilar va Rasululloh sallallohu alayhi vasallam ularga bu oyatlarning asl mohiyatini bayon qilib berar edilar. Rasululloh sallallohu alayhi vasallamga Qur'on oyatlarini yetkazishlik vojib

bo'lganidek, uning ma'nolarini bayon qilib, sharhlab berishliklari ham vojib edi. Shu tariqa tafsir ilmiga bo'lgan ehtiyojlari ham ortib bordi.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamga Alloh taolo o'z kalomini balog'at va fasohatda yetuk holda berdi. Qur'oni karimni eshitgan odamlar bu insonning kalomi emasligiga iqror bo'ldilar. O'sha kalom insu jinga zarur bo'ladigan barcha ahkomlarni o'z ichiga olgan. Bu oyatlarni o'qib o'rganish va sharhlashga zarurat tug'ildi. Ulamolar Alloh taoloning kalomini tushunishga yengillik bo'lishi uchun ushbu kalomga sharhlar yozdilar. Uni "Tafsir" ilmi deb nomladilar. Har bir ilmni bilishdan oldin o'sha ilm u nom bilan atalgan ismning lug'aviy va istilohiy ma'nolarini bilmoklik zaruriydir, toki u ilmning mafhumi tushunarli bo'lmokligi uchun.

“Tafsir” so‘zi arabcha – “تَفْسِيرٌ، قَسْرٌ، يُفَسِّرُ، فَسَّرَ” so‘zdan olingan bo‘lib, “bayon qilish, ochib berish va ravshan qilish”, degan ma‘nolarni anglatadi.

Ulamolarimiz istelohida esa: Unda inson qudrati yetguncha Alloh taoloning murodiga dalolat qilish jihatidan Qur'oni karimdan bahs qilinadigan ilm.

Abu Hayyon rahmatullohi alayh bildirishlaricha tafsirning istilohdagi yana bir ma'nosi: Ilmi tafsir shunday ilmki, unda Qur'on alfozlarini ado etish holati va uning mafhumotlari, uning yolg'iz va murakkab bo'lgan holatlaridagi hukmlari, murakkab holatida qanday ma'no ifoda etmoqligi va yana nosix-mansux, sha'ni nuzul va mubham qissalarni tafsil ila bayon etmoqlikdan bahs yuritiladi.

Tafsir ilmi kelib chiqishi va rivojlanishi jarayonida bir necha qismlarga bo'lingan.

Birinchi qism – “Tafsir bil ma'sur”. Bu qismdagi tafsirda mufasssir Qur'oni karim oyatlarini rivoyat qilgan sahih hadislar va sahobalarning qavllari bilan tafsir qiladi. Bu uslubda yozilgan tafsirlarning mashhurlari quyidagilardir; Muhammad ibn Jarir Tabariyning “Jomi'ul bayon fi tafsiril Qur'on”, Abu Muhammad Husayn ibn Mas'ud ibn Muhammad Bag'aviyning “Ma'olimut tanzil”, Imoduddin Ismoil ibn Kasirning “Tafsirul Qur'onil azim”, Jololiddin Suyutiyning “ad-Durrul mansur fit-tafsiri bil ma'sur” kitoblari.

Ikkinchi qism – “Tafsir bir – ray”. Bu qismda mufasssir o'z fikri va ijtihodi

ila tafsir qiladi va u ikkiga: joiz va g'oyri joizga bo'linadi. Joiz bo'lgan ray bilan tafsir qilishda mufassir ishonchli masdarlarga suyangan holda jaholat va zalolatdan uzoqda bo'lib tafsir qiladi. Joiz bo'lmagan qismda esa, mufassir jaholat, bid'at va zalolat bilan tafsir qiladi, shuning uchun ham allomalar bu navdagi tafsirni man qilganlar. Joiz bo'lgan ray bilan qilingan tafsirlardan; Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Husayn Faxriddi Roziyning "Mafotihul g'ayb", Nasriddin Abdulloh ibn Umar ibn Muhammad ibn Ali Bayzoviyning "Anvorut-tanzil va asrorut-ta'vil", Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Nasafiyning "Madorikut-tanzil va haqiqut ta'vil" kitoblari.

Uchinchi qism – "Tafsiri ishoriy". Bu qismda mufassir oyatning zohiriy ma'nosiga qaramay, uning maxfiy ishoralari taqozasi bilan tafsir qiladi. Bu faqat suluk va tasavvuf arboblarning uslubidir. Bu qismga doir tafsirlar; Nizomiddin Hasan ibn Muhammad Husayn Xurosoniy Naysoburiyning "G'aroibul Qur'on va rag'oibul Furqon", Sheroziyning "Aroisul bayon fi haqiqil Qur'on" kitoblari. Keyinchalik tafsirning yo'nalishlari ko'payib ketdi.

Binobarin, har ko'zga ko'ringan rivoyat bilan Qur'oni karim oyatlarini tafsir etaverish durust emasdir. Chunki u rivoyat za'if bo'lib, boshqa sahih rivoyatlarga muxolif bo'lishi ham mumkin.

Haqiqatda bu ish o'ta nozik masaladir, shuning uchun bu sohaga faqatgina o'z umrlarini ana shu fanga sarf etgan zotlarga mashg'ul bo'lmoqlilari munosibdir. Alloh taolo barcha mufassirlardan rozi bo'lsin.

REFERENCES

1. Ubaydulla Uvatovning "Ikki buyuk donishmand" («Sharq» NMAK, Toshkent, 2005) kitobidan olindi.
2. Al-Hakim at-Termiziy va nazariyatuhu fil-viloya, 35-bet.
3. Ash-Shayx Komil Muhammad Muhammad Avayda. Al-Hakim at-Termiziy, 5-6-etlar.
4. Al-Hakim at-Termiziy va nazariyatuhu fil-viloya, 31-32-betlar.
5. Al-Hakim at-Termiziy va nazariyatuhu fil-viloyati, 45-bet